

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559364>

## BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA OLMOSH SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH METODIKASI

**Abdumurodova Umida**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **M.A.Hamrayev**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
E-mail: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolani yozilishidan asosiy maqsad shundaki, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqidagi g‘alizlikni yo‘qotish va shaxslar o‘rnida almashinib kela oladigan so‘zlar haqida tushunchalarni shakllantirish.

**Kalit so‘zlar:** Ona tili, ta‘lim, olmosh, kishilik olmoshi, nutq, g‘alizlik, ma‘nodosh so‘zlar, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, suhbat.

**Аннотация:** Основная цель написания данной статьи – исключить бессмысленность в речи учащихся младших классов и сформировать понятия о словах, которые могут использоваться как взаимозаменяемые.

**Ключевые слова:** Родной язык, образование, местоимения, личные местоимения, речь, бессмыслица, синонимы, анализ, синтез, индукция, дедукция, беседа.

**Annotation:** The main purpose of writing this article is to eliminate nonsense in the speech of elementary school students and to form concepts about words that can be used interchangeably.

**Key words:** Mother tongue, education, pronouns, personal pronouns, speech, nonsense, synonyms, analysis, synthesis, induction, deduction, conversation.

Bugungi kunda ta'limga va uning barcha sohalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki ta'lim dunyoni qutqaruvchi eng kuchli quroldir. Buni dunyo pedagoglari ham ta'kidlab o'tishgan. Bolaning bilim olishida eng muhin davr bu- boshlang'ich ta'limdir. Aysiqsa, bu bilim ularga yoshlik chog'ida berilgan bo'lsa. Buning yaqqol isboti sifatida Alisher Navoiyning ushbu baytini misol qilib keltirishimiz mumkin: "Yoshlikda olingan bilim - toshga o'yilgan naqshdir". Bundan ko'rinib turibdiki ta'lim uchun eng muhim davr boshlang'ich ta'lim davridir. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning qiziqishini oshirishga katta e'tibor beriah kerak. Shu bilan birga ularning nutqiga ham katta e'tibor qaratmog'imiz lozim. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov " Jamiki ezgu-fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir",-deya ta'kidlab o'tganlar.[I.Karimov]

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak, butun bir millatning ruhini yo'qotmakdur..."<sup>1</sup> degan fikrni ilgari surganlar. Ona tiliga alohida urg'u berganlar. Chunki har bir insonning kimligi uning ona tilida va o'zining nutqida namoyon bo'ladi. Insonning go'zalligi- nutqning go'zal bo'lishidadir. Nutqning chiroyli so'zlarga boy bo'lishi, ma'noli bo'lishi va g'alizlikning bo'lmasligi juda muhimdir. G'alizlik har qanday ma'noli , betakror jumlani ham qudratini yo'qotishi mumkin. Buning oldini olish uchun bizga sinonimlar va shu bilan bir qatorda olmoshlar ham juda katta yordamchi hisoblanadi . Olmoshning qudrati shundaki ,u bolaga bir so'z o'rnida uning ma'nosiga keng qiymatta qo'llana olish imkonini beradi.Nafaqat so'z balki, jumlaning mazmuniga teng kela oladigan darajada "kuchli"dir. Ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini angelaydigan- muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsini kamol toptirishdan iborat"<sup>2</sup>

So'z turkumlari boshlang'ich sinf o'quvchilari mavzularida alohida ahamiyatga ega bo'lgan mavzu hisoblanadi. Boshlang'ich sinf darsligida ot, sifat, son, fe'l va

olmosh soʻz turkumlari mavzusi yengillashtirilgan holatda oʻtiladi. Olmosh deb: "Gap ichida ot, sifat, son, ravish baʼzan soʻz birikmasi va gap oʻrnida qoʻllana oladigan, aniq lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan soʻz turkumiga aytiladi"<sup>3</sup>. Olmoshlar boshqa soʻz turkumlari oʻrnida qoʻllanilib, soʻzlarning takrorlanishini oldini oladi. Olmoshlar maʼno turiga koʻra 7 turga boʻlinadi.

Olmosh soʻz turkumi faqat 4-sinfda mavjud boʻlib, bunda ularga faqat olmoshning maʼno turlaridan koʻrsatish olmoshnigina tanishtiriladi. Kishilik olmoshlari uchun oʻquv dasturda 13 soat ajratilgan boʻlib, oʻquvchilarga bu mavzu tushuntirilayotganda toʻgʻridan toʻgʻri taʼrif berilmaydi. Aksincha ularga asar, hikoyalardan namunalar keltirish orqali oʻquvchilarning oʻzlariga kichik hikoyalar va gaplarni ogʻzaki va yozma tarzda tuzdirish orqali tushuntiriladi. Chunki oʻquvchilar kishilik olmoshlaridan har kuni oʻz nutqida juda koʻp marta foydalanishadi. Tuzgan gaplarida oʻzining, oila aʼzolarining va doʻstlarining ismlari oʻrniga kishilik olmoshlari (men, sen, u, biz, siz, ular kabilar)dan foydalanishi ham tuzilgan matn va hikoyalarni chiroyli qiladi, ham mavzuni yaxshi oʻzlashtirishiga sanab boʻladi. Ularga sinonimlar mavzusi ham oʻtilmaydi. Faqatgina manodosh soʻzlar sifatida "tanishtiriladi". Shunda oʻquvchilarga maʼnodosh soʻzlar va olmoshning qoʻllanilishidagi oʻziga xos sifatlar tushintirib beriladi. Yaʼni olmoshlar faqatgina shaxslar oʻrnida almashinib qoʻllansa maʼnodosh soʻzlar esa maʼnosiga yaqin har qanday soʻz oʻrnida almashinib kela oladi. Gap mazmunini yanada maʼnoli va chiroyli qilishda sinonimlar ham "koʻmaklashadi". Ammo sinonim tushunchasi ular uchun "begona"dir. Chunki ularga sinonimlar mavzusi ham oʻtilmaydi. Faqatgina maʼnodosh soʻzlar sifatida "tanishtiriladi". Shunda oʻquvchilarga maʼnodosh soʻzlar va olmoshning qoʻllanilishidagi oʻziga xos sifatlar tushuntirilib beriladi. Yaʼni olmoshlar faqatgina shaxslar oʻrnida almashinib qoʻllansa maʼnodosh soʻzlaresa maʼnosiga yaqin har qanday soʻz oʻrnida almashinib kela oladi. Kishilik olmoshlari mavzusi tushuntirilganda ularga:

- *men, sen, u, biz, siz, ular* - kishilik olmoshlari ekanligi;
- *kim? kimlar?* soʻrogʻiga javob boʻlishi;
- kishilik olmoshlari 3 ta shaxsda ham birlik va koʻplikni ifodalashini;

- kelishik qo‘shimchalari bilan qanday turlanishi - o‘rgatiladi<sup>4</sup>.

O‘quvchilarga bu mavzularni tushuntirish davomida juda ko‘p metodlardan foydalanish mumkin. Ulardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qo‘llaniladigan metodlardan namunalar sifatida:

- Induksiya
- Deduksiya
- Analiz
- Sintez
- Suhbat
- Yarim izlanishli muammoli metod

Muammoli metodlarni keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari dars jarayonida har xil turdagi talimiy o‘yinlardan ham foydalanish biz uchun juda qulay va samarali yechin bo‘la oladi.

Kishilik olmoshlari mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishda darslikda ham turli xil mashqlardan foydalaniladi. Misol uchun "Kesma chiziq" texnologiyasidan foydalanishimiz mumkin. Bu jadval ko‘rinishida bo‘lib, birinchi ustunda kishilik olmoshlari, ikkinchi ustunda esa kishilik olmoshlari ifodalab keladigan shaxslar turadi va to‘g‘ri yo‘nalishda birlashtiriladi. Kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan birga qo‘llanganda ba‘zi kishilik olmoshlari tovush o‘zgarishiga uchraydi. Shu o‘zgarishlarni ham jadval asosida tushuntirib berishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, nutqning rivojlanishi uchun har bir jihatning o‘rni beqiyosdir. Hayotimiz davimida nutqdan foydalanar ekanmiz uni mazmunga boy qilishimiz shartdir. Buning uchun har bir jumlamizga alohida urg‘u berishimiz kerak. Lug‘at boyligimizni oshirishimiz kerak. Olmoshlar va ma‘nodosh so‘zlarni ot o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay olishimiz kerak. Olmoshlarning qollanilishiga oid xususiyatlariga alohida e‘tibor berishimiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”
2. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi.Boshlang‘ich ta’lim.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi Respublika ta’lim markazi.Toshkent – 2017.
3. ”Ona tili” M.Hamrayev, ”Sharq” nashriyot matbaa AK.Toshkent,2012-yil,74-bet
4. ”Ona tili o‘qitish metodikasi” Boshlang‘ich ta’lim fakultetlari talabalari uchun darslik. K.Qosimova va boshqalar, “Nosir” nashriyoti, Toshkent-2009.